



O'ZBEKISTONDA SUVDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA SUVGA DOIR MUNOSABATLAR

Matkarimov Mansur

Ma'mun universiteti

ORCID: 0009-0006-9184-0911

mansurmatkarimov20@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish asoslari, suvdan foydalanish huquqi, suv fondi, suvga doir munosabatlar, suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi, suv obyektlaridan foydalanish maqsadlari kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, suvdan foydalanish asoslari, suvdan foydalanish huquqi, suv fondi, suv munosabatlari, suv obyektlaridan foydalanish.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ И ВОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Маткаримов Мансур

Университет Мамуна

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как основы водопользования в сельском хозяйстве Республики Узбекистан, право пользования водой, водные ресурсы, водные отношения, государственное управление в сфере водопользования и цели использования водных объектов.

Ключевые слова: сельское хозяйство, основы водопользования, право на использование воды, водный фонд, водные отношения, использование водных ресурсов.

LEGAL BASIS OF WATER USE AND WATER RELATIONS IN UZBEKISTAN

Matkarimov Mansur

Mamun University

Abstract. This article examines issues such as the basics of water use in agriculture in the Republic of Uzbekistan, the right to use water, water resources, water relations, state governance in the field of water use, and the purposes of using water bodies.

Keywords: agriculture, basics of water use, right to use water, water fund, water relations, use of water bodies.

Kirish.

Suv resurslarining kelgusi balansiga mintaqaning asosiy daryolari shakllanadigan muzliklarning jadal erishi, iqlim o'zgarishining boshqa jihatlari, shuningdek aholining suvga ortib borayotgan ehtiyojlari va sanoatning rivojlanishi ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonga iqlim o'zgarishi avvalo, hududning asosiy daryolarini shakllantiradigan tog' muzliklarining erishi, dehqonchilik yerlarining degradasiyasi bilan tahdid soladi. So'nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30-35 foizga qisqargan. Hisob-kitoblarga ko'ra, harorat 2 darajaga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 4 darajaga isiganda – 78 foizga kamayishi taxmin qilinadi.

Suv taqchilligi bilan bog'liq vaziyat qo'shni mamlakatlardan suv yetkazib berilishiga nihoyatda bog'liq ekanligi bilan yanada murakkablashadi (iste'mol qilinadigan suvning 75 foizga yaqini mamlakatga tashqaridan keladi). Shu sababli davlatimizda qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va tejamkor texnologiyalardan foydalanish masalalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mazkur yo'nalishda Masharipova (2025) qishloq xo'jaligida resurslarni, jumladan suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan samarali foydalanish masalalarini o'rgangan. Rudenko atrof-muhit va tabiiy resurslar, suv resurslaridan foydalanish, ularni boshqarish samaradorligini oshirish ishlarini tadqiq qilishgan. Matkarimov (2025) yashil iqtisodiyotga o'tishda suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash jarayonlarini boshqarish, suv infrastrukturasi moliyalashtirish, suvdan foydalanganlik uchun soliqqa tortish kabi masalalarni tadqiq qilgan. Abduraximov va Toshmatov (2003) suv xo'jaligida boshqaruv tizimini, suv bilan bog'liq loyiha tajribalarini o'rganishgan. Xotamov va Sultonov (2021) atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti, suv taqsimotidagi mavjud vaziyat kabi masalalarni o'rganishgan. Xajibakiyev (2020) yashil iqtisodiyot, qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida rivojlantirish muammolari kabi masalalarni tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda statistic ma'lumotlarni qayta ishlash, iqtisodiy guruhlash, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Suv va suvdan foydalanishning asosiy vazifalari aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvlarning zararli ta'sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Suv O'zbekiston Respublikasining davlat mulki - umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo'lib, u davlat tomonidan qo'riqlanadi.

Yagona davlat suv fondi quyidagilardir:

- jilg'alar, soylar, daryolar, suv omborlari, ko'llar, dengizlardan, kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari, buloqlar, hovuzlarning suvlari va boshqa yer usti suvlaridan;
- yer osti suvlari, qor zaxiralari va muzliklardan iboratdir.

Transchegaraviy suv obyektlarining (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolari, Orol dengizi va boshqa transchegaraviy suv obyektlarining) suvlaridan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilanadi.

Suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek suvdan foydalanishni bevosita

yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Suv xo'jaligi vazirligi (yer usti suvlari), Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (yer osti suvlari) o'z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hisoblanadi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining vazifasi suvdan foydalanish borasida belgilab qo'yilgan tartibga barcha vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari va fuqarolar rioya qilishlari, suvni muhofaza qilish, suvning zararli ta'sirining oldini olish va bartaraf qilish vazifalarini, suvni hisobga olish qoidalarini, shuningdek suv to'g'risidagi qonunchilikda belgilab berilgan boshqa qoidalarini bajarishlarini ta'minlashdir.

Suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlarni hamda boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, tiklash va ishga tushirishda, yangi texnologik jarayonlarni joriy etishda aholining sog'lig'ini saqlash va ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarini hamda maishiy ehtiyojlarini birinchi navbatda qondirish talablariga rioya etgan holda suvdan oqilona foydalanish, shuningdek kollektor-drenaj suvlarini va oqova suvlarni chiqarib yuborishning qulay rejimi ta'minlanishi lozim.

Suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv iste'molchilari uyushmalari, kommunal-maishiy soha, gidroenergetika korxonalari, boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar suvdan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin.

Suv obyektidan suv olish usuliga, suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etilishiga qarab suvdan foydalanish suvdan umumiy va maxsus foydalanishga bo'linadi. Jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda o'z ehtiyojlarini hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadida suvdan foydalanish suvdan umumiy foydalanishdir.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan suvdan foydalanish suvdan maxsus foydalanishdir.

Suv obyektlari tanho yoki birgalikda foydalanishda bo'lishi mumkin. Yuridik yoki jismoniy shaxslarga butunlay yoki qisman foydalanishga berilgan suv obyekti tanho foydalaniladigan suv obyektidir. Tanho foydalanishga berilmagan suv obyekti birgalikda foydalaniladigan suv obyektidir.

Suv obyektlari qonunchilikda belgilangan tartibda suv xo'jaligi, sanitariya nazorati, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, geologiya va mineral resurslar organlari bilan kelishilgan holda foydalanishga beriladi.

Suv obyektlari suvdan foydalanuvchilarga suv iste'molchilarining qishloq xo'jaligi, ichimlik, davolash va maishiy ehtiyojlarini, aholining kurort, rekreatsiya va o'zga ehtiyojlarini, sanoat, energetika, transport, baliqchilik xo'jaligi hamda boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishga beriladi.

Suvdan foydalanuvchilarning suvni yetkazib berish bo'yicha xizmatlari, shuningdek ko'rsatilgan boshqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun shartnoma asosida haq to'lanadi. Suv obyektlari doimiy yoki vaqtincha, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida foydalanish uchun beriladi.

Muddati avvaldan belgilanmagan holda foydalanish — doimiy foydalanish deb e'tirof etiladi.

Suvdan vaqtincha foydalanish muddati uch yildan kam bo'lmasligi va qirq to'qqiz yildan oshmasligi kerak.

Suvdan foydalanuvchilar:

- suv obyektlaridan oqilona foydalanishi, suvni tejab sarflash, suvlarning sifatini tiklash va yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilishi;
- belgilangan suv olish limitlariga va suvdan foydalanish qoidalariga rioya etishi;

- suvdan maxsus foydalanishda qonunchilikda belgilangan tartibda ruxsatnomani rasmiylashtirishi;
- ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo'lgan oqova suvlarni suv obyektlariga oqizishni tamomila tugatish chora-tadbirlarini ko'rish;
- boshqa suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'ymasligi;
- suv obyektlarini, suvni muhofaza qilish inshootlarini va boshqa inshootlarni, texnik qurilmalarni texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ularni ishlatish sifatini yaxshilashi hamda ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishi;
- suvni olish va berishda suv miqdori hisobini yuritishi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda hisobotni taqdim etishi;
- suv resurslaridan foydalanganlik, shuningdek suvni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar va ko'rsatilgan boshqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida shartnomaviy asosda to'lashi;
- suvni tejash va raqamli texnologiyalarni joriy etish choralari ko'rish;
- suv resurslaridan oqilona foydalanishda suv iste'molchilariga ko'maklashishi;
- suvlarning bulg'anishi, ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish;
- suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonolari, sohil bo'yi mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonalarini saqlashning belgilangan rejimiga rioya qilishi;
- suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakillarini o'z suv xo'jaligi obyektlariga belgilangan tartibda kiritishi hamda ularga zarur axborotni taqdim etishi;
- baliqlarni, boshqa suv florasi va faunasini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishi shart.

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan foydalanish va suv iste'moli qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, tashkilotlari, fermer va dehqon xo'jaliklarining, shuningdek fuqarolarning sug'oriladigan yerlarida qulay suv rejimini vujudga keltirish maqsadida amalga oshiriladi.

Suv obyektlaridan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish limit bo'yicha suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilishning belgilangan tartibiga rioya etgan holda suvdan umumiy va maxsus foydalanish yoki suvni umumiy va maxsus iste'mol qilish tartibida amalga oshiriladi. Fermer va dehqon xo'jaliklarining suv olish limitlari ularning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas, manbalarning suvi kamaygan hollar bundan mustasno.

Suvdan foydalanish va suv iste'moli har yilgi suv bilan haqiqiy ta'minlanganlik hisobga olingan holda suvdan foydalanish va suv iste'moli rejalari asosida amalga oshiriladi.

Kollektor-drenaj tarmog'ida suvdan foydalanishni va suv iste'molini rejalashtirish melioratsiya qilinayotgan yerlarning holatini, kollektor-drenaj suvi sifatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Suv iste'moli rejalari "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari suv iste'moli rejalari umumlashtiradi va suvdan foydalanish rejalari tuzadi.

Suv xo'jaligidan foydalanuvchi tashkilotlarning suv xo'jaligi obyektlari va inshootlari belgilangan tartibda, davlat-xususiy sheriklik prinsiplari asosida foydalanishga berilishi mumkin.

Suv omborlari, sel-suv omborlari, shuningdek yirik va alohida muhim suv xo'jaligi obyektlari xususiy lashtirilmaydi.

Sug'oriladigan dehqonchilik ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish limit bo'yicha suvdan foydalanishning yoki suvni iste'mol qilishning belgilangan tartibiga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Suvni faqat ro'yxatdan o'tkazilgan, suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlangan suv ajratish joylaridan (kanallarning suv olish inshooti, quduq, nasos stansiyasi (agregati) va boshqa suv olish inshootlari) shartnomaviy asosda olishga ruxsat beriladi.

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanuvchi suvdan foydalanuvchilar:

- suv resurslarini samarali boshqarishi, limitdan ortiqcha suv olinishiga va suvdan maqsadsiz foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi;
- belgilangan tartibda yangi suv obyektlari qurilishini va ishlab turganlari rekonstruksiya qilinishini, shuningdek sug'oriladigan yerlarning kompleks rekonstruksiya qilinishini tashkil etishi;
- suvni tejaydigan texnologiyalarni va ilg'or sug'orish texnikasini joriy etish orqali sug'orish vositalari va usullarini takomillashtirishda suv iste'molchilariga ko'maklashishi;
- qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suvlarning monitoringi asosida salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlarini bartaraf etishi shart.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini oqova suvlar bilan sug'orish davlat sanitariya nazorati organlari bilan kelishilgan holda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlarining ruxsati bilan, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sanoat, kommunal korxonalari va boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda fuqarolar tuproq unumdorligiga va yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlariga zararli ta'sir qiluvchi suvlarni qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish uchun berishlari taqiqlanadi.

Jamoa bog'lari, tokzorlari, ekinzorlarini va tomorqa yer uchastkalarini suv bilan ta'minlash belgilangan tartibda "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari tomonidan suv yetkazib berish va suv xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Suv iste'molchilarining suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari bilan belgilangan tartibda kelishilmagan holda suv sarfini ko'paytirish yoki kamaytirish maqsadida suv obyektlaridagi gidrotexnika inshootlarini o'zboshimchalik bilan o'zgartirishi, shuningdek ularga muvaqqat to'siqlar, nasos stansiyalari (agregatlar) va suvni ko'taradigan hamda suv oladigan boshqa inshootlarni qurishi taqiqlanadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi xulosa va takliflar beriladi:

O'zbekistonda suv tanqisligining yuzaga kelishi va ekologik muammolar keskinlashuvining asosiy sabablardan biri mintaqada uzoq yillar davomida sug'oriladigan maydonlarning texnik iqtisodiy asoslanmasdan o'sishi bo'ldi. Tahlil natijalari mintaqada sug'oriladigan maydon o'sganini ko'rsatdi. Sug'oriladigan maydonlarning o'sishi paxta xom-ashyosini mustaqillagiga erishish siyosati bilan bog'liq bo'ldi. Ushbu siyosatni amalga oshirish uchun keng miqyosda yangi kanallar qazildi, suv saqlash omborladi tashkil etildi, lekin keng miqyosda amalga oshirilgan sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish ilmiy asoslanmasdan bajarildi. Bunda sug'orish tizimlarini boshqarish ma'muriy boshqaruv usulida amalga oshirildi. Suv zahiralari tejash va muhofaza qilish tadbirlariga e'tibor qaratilmadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abduraximov, I., Toshmatov, X. and Dauletov, M. (2003) *Menejment v vodnom xozyaystve*. T.: Sharq, 25-27 b.

Lex.uz (n.d.) *O'zR qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*. Available at: <https://www.lex.uz>

Madraximov, Q.E. (2025) *Iqtisodiy nomutanosib o'sish sharoitida mintaqaviy iqtisodiy siyosatning innovatsion modelini shakllantirish*. Dissertatsiya. Urganch.

Masharipova, M.A. and Rudenko, I.Y. (2025) *Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti*. Darslik. Urganch: "Khwarezm publication", 260 b.

Matkarimov, M.M. (2025) *Yashil iqtisodiyotga o'tishda suv tejoychi texnologiyalarni qo'llash jarayonlarini boshqarish. Monografiya. Urganch: "Khwarezm publication", 112 b.*

Matkarimov, M.M. (2026) *'O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy-siyosiy tahlili.'* J. Ma'mun. Urganch, 53 b.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (n.d.) Rasmiy sayt. Available at: <https://www.mf.uz>

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi (n.d.) Rasmiy sayt. Available at: <https://www.stat.uz>

Vaxobov, A.V., Xajibakiyev, Sh.X. va boshqalar (2020) *Yashil iqtisodiyot: Darslik. Toshkent: "Universitet", 34 b.*

Xotamov, I.S., Sultonov, M.Q. and Yadgarov, A.A. (2021) *Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. Darslik. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 185-187 b.*